“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



Yoʻl harakati xavfsizligini ta'minlashda idoralararo hamkorlikning huquqiy jixatlari tahlili va uni rivojlantirish

Zuxriddin Muxammadaliyev,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Namangan viloyati IIB xodimi
e-mail: zuxriddin.muxammadaliyev@mail.ru

Аннотация. Mazkur maqolada Oʻzbekistonda yoʻl harakati xavfsizligini ta’minlashda idoralararo hamkorlikning huquqiy asoslari va ahamiyati tahlil qilingan. Milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar oʻzaro solishtirilib, ulardagi huquqiy boʻshliqlar aniqlangan. Huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, jamoat xavfsizligi toʻgʻrisida yangi qonun qabul qilish va aholi huquqiy madaniyatini oshirish boʻyicha ilmiy taklif va tavsiyalar berilgan.

Калит сўзлар. jamoat xavfsizligi, idoralararo hamkorlik, yoʻl harakati xavfsizligi, huquqiy asoslar, normativ-huquqiy hujjatlar, yoʻl harakatini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlar, “Vision Zero” konsepsiyasi.

Аннотация. В данной статье проанализированы правовые основы и значение межведомственного взаимодействия в обеспечении безопасности дорожного движения в Узбекистане. Проведено сравнительное изучение национальных и международных нормативно-правовых актов, в результате чего выявлены существующие правовые пробелы. Разработаны научные предложения и рекомендации по совершенствованию правовых механизмов, принятию нового закона о общественной безопасности, а также повышению уровня правовой культуры населения.

Ключевые слова. общественная безопасность, межведомственное взаимодействие, безопасность дорожного движения, правовые основы, нормативно-правовые акты,международные правовые акты, регулирующие дорожное движение, концепция «Vision Zero».

Annotation. This article analyzes the legal foundations and significance of interagency cooperation in ensuring road traffic safety in Uzbekistan.A comparative analysis of national and international regulatory legal acts is conducted, which makes it possible to identify existing legal gaps. Scientific proposals and recommendations are put forward to improve legal mechanisms, adopt a new law on public security, and enhance the legal awareness and legal culture of the population.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Keywords. public security, interagency cooperation, road traffic safety, legal foundations, regulatory legal acts, international legal instruments regulating road traffic, the “Vision Zero” concept.

Yoʻl harakati xavfsizligini ta'minlash murakkab va koʻp qirrali ijtimoiy-huquqiy jarayon boʻlib, u nafaqat ichki ishlar organlari, balki mahalliy davlat hokimiyati organlari, transport va yoʻl xoʻjaligi, ta'lim va sogʻliqni saqlash tizimlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari kabi turli idora va tashkilotlar oʻrtasida samarali hamkorlikni talab etadi.

Respublikamizda transport vositalari sonining ortishi, yoʻl infratuzilmasining jadal rivojlanishi hamda jamiyatning mobillashuvi sharoitida yoʻl harakati xavfsizligini ta'minlash samaradorligi tobora idoralararo hamkorlik darajasiga bogʻliq boʻlib bormoqda.

Yoʻl-transport hodisalari sonini kamaytirish, harakat ishtirokchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, shuningdek, xavfsiz muhitni shakllantirishda har bir manfaatdor davlat organi oʻz vakolatlari doirasida aniq, izchil va oʻzaro muvofiqlashgan tarzda faoliyat yuritishi lozim.

Shu munosabat bilan idoralararo hamkorlikning huquqiy asoslarini chuqur oʻrganish, ularni zamon talablari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu oʻrinda yangi Oʻzbekiston sharoitida yoʻl harakati xavfsizligini ta'minlashda idoralararo hamkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingani haqida savol tugʻilishi tabiiy.

Asosiy milliy normativ-huquqiy hujjatlarga:

1. “Yoʻl harakati toʻgʻrisida”gi Qonun [1] (2024-yil, 19-yanvar). Ushbu qonun yoʻl harakati ishtirokchilari – piyodalar, haydovchilar, yoʻl sohasi tashkilotlari va nazorat organlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Qonunga koʻra, Vazirlar Mahkamasi, IIV, Transport vazirligi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa idoralar oʻz vakolatlari doirasida yoʻl harakati xavfsizligiga mas'ul hisoblanadi. Shuningdek, qonun yoʻl harakati sohasida idoralararo muvofiqlikni belgilangan, ammo amaldagi mexanizmlar yetarlicha aniq emas. Shu bois, uni takomillashtirish bugungi kun talabidir.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yoʻl harakati xavfsizligini ta'minlashga oid kompleks chora-tadbirlari [2]**.** Ushbu chora-tadbirlar dasturlari har besh yilda qayta koʻrib chiqiladi. Ularda:

- yoʻl infratuzilmasini takomillashtirish;

- haydovchilarni tayyorlash tizimini yaxshilash;

- elektron nazorat va foto-video qayd etish tizimlarini joriy etish;

- davlat idoralari oʻrtasida axborot almashish tizimini tashkil qilish nazarda tutilgan.

Shuningdek, ushbu hujjatning ahamiyati shundaki, bu dastur idoralararo hamkorlikni amaliy bosqichga koʻchiradigan muhim harakat rejasi hisoblanadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

3. *Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi* [3] unda idoralararo hamkorlik tamoyillari belgilab berilgan. Shuningdek, mazkur konsepsiyada yo‘l harakati xavfsizligi jamoat xavfsizligining bir qismi sifatida belgilanib, quyidagi asosiy tamoyillar ilgari suriladi:

- davlat organlari o‘rtasida vazifalarni aniq taqsimlash;

- har bir idoraning hisobdorligi va samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash;

- jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish;

- axborot texnologiyalari asosida yagona nazorat tizimini yaratishdir.

Shuningdek, ushbu farmonda idoralararo hamkorlik strategik vazifa sifatida belgilangan.

Asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar:

BMTning Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan o‘n yillik harakat dasturi [4]. Ushbu dastur BMT Bosh Assambleyasining 74-sessiyasida qabul qilingan. Uning maqsadi – yo‘l-transport hodisalari oqibatida halok bo‘lish va jarohatlanish holatlarini 50 %ga qisqartirish. Mazkur hujjatning asosiy yo‘nalishlariga:

- har bir davlatda integral xavfsizlik strategiyasini shakllantirish;

- davlat idoralari o‘rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sog‘liqni saqlash va ta'lim sohalarini jalb qilish;

- ma'lumotlar bazasi va statistika tizimini takomillashtirish.

Daniya, Finlyandiya, Germaniyada qabul qilingan Vision Zero (hech qanday o‘lim – maqsad sifatida) konsepsiyalari;

Vision Zero – bu davlat siyosatida yo‘ldagi o‘limni mutlaqo qabul qilib bo‘lmaydigan holat sifatida qabul qilishdir. Konsepsiya 1997-yilda Shvetsiyada qabul qilingan, keyinchalik ko‘plab Yevropa mamlakatlari tomonidan joriy etilgan. Tamoyillariga:

- yo‘l tizimi inson xatolari va ojizliklarini inobatga olgan holda loyihalanishi kerak;

- barcha idoralar mas'uliyatni bo‘lishadi;

- hukumat, mahalliy hokimiyat, politsiya, sog‘liqni saqlash, ta'lim, transport operatorlari – barchasi hamkorlikda harakat qiladi.

WHO (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti) va UNESCAP (Osiyo va Tinch okeani uchun Iqtisodiy va ijtimoiy komissiya) tavsiyalari:

WHO 2023-yilda “Global Plan for Road Safety” dasturini ishlab chiqdi, unda davlatlarga idoralararo muvofiqlashtirilgan harakatlar tavsiya etildi;

UNESCAP yo‘l harakati xavfsizligini transchegaraviy masala sifatida baholab, transport siyosatlarida regional muvofiqlikni ta'minlashga chaqirmoqda.

Yuqorida xalqaro huquqiy hujjatlarni ilmiy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda yo‘l harakati xavfsizligini ta'minlashda idoralararo hamkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi quyidagi huquqiy bo‘shliqlarni kuzatish mumkin. Bularga:

birinchidan, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markaziy organ belgilanmagan;

ikkinchidan, hududiy darajadagi idoralararo hamkorlik mexanizmlari mavjud emas;

uchinchidan, “Yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” huquqiy majburiyat yuklamaydi, faqat idoralararo kelishuv darajasida qolmoqda. Shuningdek, uni amalga oshirish boʻyicha hisobot berish va nazorat mexanizmi yoʻq;

toʻrtinchidan, Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi deklarativ xususiyatga ega boʻlib, undan kelib chiqadigan vazifalar qonunchilikda mustahkamlanmagan. Shuningdek, har bir idoraning vazifalari va hisobdorlik chegarasi huquqiy majburiyat shaklida belgilanmagan;

beshinchidan, Oʻzbekistonda “Vision Zero” konsepsiyasini milliy qonunchilik mazmuniga integratsiya qilinmagan.

Mazkur mahalliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar mazmunining tahlili shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston sharoitida yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash sohasida idoralararo hamkorlikni yanada takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Rossiyalik huquqshunos olim P.V. Molchanov [5] oʻzining “Administrativno-pravovoye obespecheniye bezopasnosti dorojnogo dvijeniya v Rossiyskoy Federatsii” nomli asarida yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlashda ichki ishlar organlari va boshqa davlat organlari oʻrtasidagi hamkorlikning huquqiy-tashkiliy asoslarini tahlil qilib, Rossiya Federatsiyasida huquqiy muvofiqlashuv va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining zarurligini ilmiy asoslaydi. A.A. Martынov [6] «Povыsheniye effektivnosti mejvedomstvennogo vzaimodeystviya pri obespechenii bezopasnosti dorojnogo dvijeniya» nomli asarida idoralararo hamkorlik samaradorligini oshirishda axborot almashinuvi, elektron tizimlar va normativ integratsiyaning oʻrnini yoritadi.

Hindistonlik taniqli olim David Mohan [7] oʻzining “Road Safety in Low-Income and Middle-Income Countries” nomli tadqiqotida kambagʻal va oʻrta daromadli mamlakatlarda transport xavfsizligini taʼminlash uchun davlat tuzilmalari oʻrtasidagi hamkorlik modellari, boshqaruv strukturalari va meʼyoriy-huquqiy yechimlarni tahlil qilgan. Uning fikricha, samarali yoʻl harakati siyosati uchun mahalliy sharoitga moslashgan, institutlararo muvofiqlashuvni nazarda tutuvchi normativ bazalarning mavjudligi zarur hisoblanadi.

Norvegiyalik olim Rune Elvik [8] esa oʻzining “The Handbook of Road Safety Measures” nomli fundamental ilmiy asarida xavfsizlik chora-tadbirlarini ilmiy asosda baholash, davlat siyosatini muvofiqlashtirish va idoralararo muloqotni samarali tashkil etishning statistik usullariga eʼtibor qaratadi.

Avstraliyalik tadqiqotchi Barry Watson [9] esa “Inter-agency collaboration in road safety: A case study from Queensland” nomli ilmiy ishida Kvinslend shtati misolida hukumat va mahalliy idoralar oʻrtasidagi hamkorlik mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi. U oʻz ishida qonunchilik asoslari, tashkiliy tuzilmalar va amaliy yechimlarning muvaffaqiyatli joriy etilishidagi ahamiyatni yoritib

bergan.

Shuningdek, Hindistondagi yoʻl harakati xavfsizligi masalalarini tadqiq qilgan Dinesh Mohan va Geetam Tiwari [10] oʻzlarining “Road Safety and Injury Prevention in India” nomli tadqiqotlarida idoralararo muvofiqlashuvning amaldagi ahamiyati, infratuzilma rivoji va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikning rolini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ular ushbu sohada fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kuchaytirish, mahalliy sharoitlarga mos profilaktik choralar va taʼlim mexanizmlarini joriy etish zarurligini taʼkidlaydilar.

Ushbu olimlar oʻz ilmiy izlanishlari natijasida davlatlar oʻrtasida va ichida transport, sogʻliqni saqlash, infratuzilma, huquqni muhofaza qilish va taʼlim sohalaridagi organlar oʻrtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirishni tavsiya etishadi.

Yuqoridagi yoritilgan ilmiy nazariy qarashlar mazmunidan kelib chiqib, Oʻzbekiston sharoitida yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash sohasida idoralararo hamkorlikni mustahkamlash maqsadida quyidagi muammolar yuzasidan ilmiy asoslangan takliflarni milliy qonunchilikka joriy etish taklif etiladi. Bularga:

- bugungi kunda yangi Oʻzbekistonda amalda boʻlgan “Yoʻl harakati xavfsizligi toʻgʻrisida”gi Qonunning 4-moddasida davlat organlarining vazifalari umumiy mazmunda qisqa qilib belgilangan, ammo aniq mexanizm hamda hududiy muvofiqlashuv koʻzda tutilmagan:

Hal etish yuzasidan taklif: *a*malda boʻlgan “Yoʻl harakati toʻgʻrisida”gi Qonunni institutsional hamkorlikka mos ravishda qayta koʻrib chiqib, Qonunga “Idoralararo hamkorlik va muvofiqlashuv” deb nomlangan alohida bob kiritish. Shuningdek, mazkur bobda har bir manfaatdor organning (IIV, Transport vazirligi, mahalliy hokimiyatlar, sogʻliqni saqlash, taʼlim muassasalari) aniq huquqiy vazifa va javobgarligi keng mazmunda belgilanishi kerak;

- bugungi kunda yangi Oʻzbekistonda jamoat xavfsizligining bir qismi boʻlgan yoʻl harakati xavfsizligi faoliyatini oʻzida qamrab olgan “Jamoat xavfsizligi toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilinmagan.

Hal etish yuzasidan taklif: “Jamoat xavfsizligi toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilish, shuningdek mahalla, tuman va shahar darajasida jamoat xavfsizligini taʼminlash uchun idoralararo operativ guruhlar faoliyatini huquqiy asosga ega qilish;

- bugungi kunda yangi Oʻzbekistonda fuqarolar va haydovchilar oʻrtasida huquqiy madaniyat darajasi pastligi.

Hal etish yuzasidan taklif: aholining huquqiy ong va madaniyatini oshirishni huquqiy vazifa sifatida belgilash. Xususan:

- har bir davlat idorasi uchun aholi oʻrtasida targʻibot va taʼlim faoliyatini yuritish majburiyatini qonun bilan belgilash;

- OAVda ijtimoiy reklama va profilaktika kontentini joriy etishni majburiy vazifa sifatida qonunchilikda belgilash;

- maktab va OTMlarda “Yoʻl harakati madaniyati va huquqiy bilimlar” fanini integratsiya qilish.

Ushbu takliflar, yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatini strategik va tizimli asosda rivojlantirish uchun muhim huquqiy islohotlar yo‘nalishini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 19.01.2024-yildagi O‘RQ-900-son.
// https:// lex.uz/uz/docs/-6764454
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati xavfsizligi sohasini ilmiy-metodik ta'minlash, yo‘llarda ekspluatatsiya-montaj faoliyatini tartibga solish hamda “Xavfsiz yo‘l” indeksini yuritish amaliyotini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori // https://lex.uz/ru/docs/6136750
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/5749291
4. Resolution adopted by the General Assembly on 31 August 2020 // https://docs.un.org-/en/A/RES/74/299
5. Молчанов П.В. «Административно-правовое обеспечение безопасности дорожного движения в Российской Федерации». Монография // https://uz.ozon.com/product/administrativno-pravovoe-obespechenie-bezopasnosti-dorozh-ного-движҳения-в-российской-1656229508/
6. Мартынов А. А. Повышение эффективности межведомственного взаимодействия при обеспечении безопасности дорожного движения // Право и безопасност, 2020, № 3. / https://elibrary.ru/item.asp?id=44165152
7. Mohan, D. (2002). Road safety in less-motorized environments: Future concerns. International Journal of Epidemiology, 31(3), 527–532.https://doi.org/10.1093/ije/31.3.527
8. Elvik, R., Høye, A., Vaa, T., & Sørensen, M. (2009). The Handbook of Road Safety Measures (2nd ed.). Emerald Group Publishing. // ISBN: 9781848552500 / https://books.-emeraldinsight.com/page/detail/The-Handbook-of-Road-Safety-Measures/?k =9781848552500
9. Watson, B. (2004). Inter-agency collaboration in road safety: A case study from Queensland. Journal of the Australasian College of Road Safety, 15(3), 31–36.
10. Mohan, D. & Tiwari, G. (2000). Road safety and injury prevention in India. Transportation Research and Injury Prevention Programme (TRIPP), Indian Institute of Technology Delhi. http://tripp.iitd.ac.in